Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

YUNUS EMRO POEZIYASI: SEMIOTIK TALQIN VA POETIK KODLAR TIZIMI

Adolat Anvarovna Yusupova*
O'ZDJTU 1- bosqich tayanch doktoranti
✉ adolatgmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yunus Emro she'riyati semiotik metodologiya asosida tahlil qilinadi. Shoir poetikasida qo'llangan tasavvufiy ramzlar, poetik kodlar tizimi hamda belgilar o'rtasidagi semantik munosabatlar yoritiladi. Struktur-semiotik yondashuv asosida Yunus Emro lirikasida ilohiy ishq, komil inson g'oyasi va ma'naviy kamolot konsepsiyasining badiiy ifodalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida shoir poetikasining ko'p qatlamli ma'no tizimi va uning turkiy tasavvuf adabiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar

Yunus Emro, semiotika, poetik kod, belgi, ramz, tasavvuf, poetika, struktur-semiotik tahlil, ilohiy ishq, badiiy matn, ma'no tizimi, turkiy adabiyot.

DOI: 10.5281/zenodo.21743372

KIRISH

Yunus Emro (1240–1320) – turk xalq poeziyasi va tasavvuf adabiyotining buyuk namoyandasi bo'lib, undan avlodlarga o'gitlardan iborat masnaviy shaklidagi **"Risolatun-Nushiyya"** asari hamda ilohiy ishq, falsafa va insoniylikni madh etuvchi boy "Devon"i meros qolgan. Shoir lirikasi va qarashlarini bugungi kunda o'rganish o'ta dolzarbdir, chunki shoir arab va fors tillari hukmron bo'lgan davrda asarlarini xalq tushunadigan sof turkiy tilda yozib, ona tili rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, shu bilan birga uning ijodidagi umumbashariy birdamlik, tolerantlik va tinchlik g'oyalari hozirgi davrdagi global nizolar hamda ma'naviy inqirozlarga qarshi eng to'g'ri va kuchli ma'naviy yechim bo'lib xizmat qiladi.

Shoir lirikasi chuqur tasavvufiy ramzlar va qalb harorati bilan sug'orilgan bo'lib, uning *"Ishqing qildi shaydo meni, keling, ko'ring, ishq ne qildi, gah esarman ellar kabi, gah to'zarman yo'llar kabi, gah oqarman sellar kabi, keling, ko'ring, ishq ne qildi"* kabi satrlari insonning Haq sevgisi yo'lidagi ma'naviy izlanishlarini yuksak badiiylik bilan ifodalaydi. Yunus Emro o'z she'riyatida nafsni jilovlash, kibrdan voz kechish va qalb pokligiga intilish g'oyalarini ilgari surib, *"Ey do'st, sening ishqing tushdi tushgali, bu jonim o'tiga yondi-da ketdi, haqiqat shulasi ko'rindi ko'zga, ko'nglim g'am uychasi bo'ldi-da ketdi"* deya dunyoviy o'tkinchi tashvishlardan ustun turuvchi ilohiy va baxt-saodatga eltuvchi chinakam ishq falsafasini sodda, ta'sirchan hamda ohangdor misralarda butun bashariyatga taqdim etgan.

Shoirning sherlari juda mazmunli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib O'zbekistonda deyarli o'rganilmagan, ayniqsa, nazariy jihatlari ochib berilmagan. **Yunus Emroning she'riyati turk va ingliz olimlari tomonidan qisman o'rganilgan.** Uning hayoti va ijodiy merosini tizimli tadqiq etish, eng avvalo, turk akademiki Mehmet Fuat Ko'pruli nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" asari shoir she'riyatidagi yassaviyona an'analarni ilmiy asoslab bergan fundamental tadqiqot hisoblanadi. Turkiya adabiyotshunosligida Burhon Tuproq, Abdulboqiy Go'lpinarli, Sabohiddin Ayyubo'g'li

va Ahmad Qabaqli kabi taniqli matnshunos hamda adabiyotshunos olimlar shoir devonining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratishgan. Ular ”Risolatun-Nushiyya” dostonining janriy xususiyatlarini tasavvufiy-falsafiy jihatdan atroflicha tahlil qilib, uning G‘arb va Sharq madaniy integratsiyasidagi o‘rnini xalqaro miqyosda yoritib berganlar.

O‘zbek adabiyotshunosligi hamda tasavvufshunosligida Yunus Emro merosini o‘rganish va o‘zbek kitobxonlariga yetkazish borasida taniqli olim **Ibrohim Haqqul** hamda adabiyotshunos dotsent Mubora Omanova jiddiy ilmiy izlanishlar olib borganlar. Mazkur tadqiqotlarda Anadoli tasavvuf maktabining Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari bilan sinkretik aloqalari, she’riy vaznlar hamda timsollar tizimidagi mushtaraklik dialektik nuqtai nazardan ochib berilgan. Shoir merosining badiiy tabdili va filologik talqini sohasida taniqli ijodkor Xurshid Davron hamda ozarbayjonlik navoiyshunos olima Olmos Ulviyning ham qiyosiy-tarixiy tadqiqotlari turkiy xalqlar adabiy aloqalari kontekstida alohida ahamiyatga ega.

Yunus Emroning turkiy sheriyati poetikasini, ya’ni badiiy xususiyatlarini vazn, qofiya, she’riy sanatlar, mavzular ko‘lami, obrazlari, asar tili, shoirning mahorati kabi masalalarning nazariy jihatlarini semiotika nuqtai nazaridan ochib berish dolzarb masalalrdan biridir.

Semiotik tahlil – badiiy matnni axborot uzatuvchi belgilar va ramzlar tizimi (kodlar) sifatida o‘rganuvchi zamonaviy metodologik usul bo‘lib, unda she’rdagi har bir so‘z, rang, shakl va ritm ma’lum bir yashirin ma’noni tashuvchi ”belgi” (sign) hisoblanadi. Ushbu tahlil usuli adabiyotshunoslikka Ferdinand de Sossyur, Charlz Pirs va Yuriy Lotman kabi olimlarning nazariyalari asosida kirib kelgan bo‘lib, matnning sirtqi shakli (ifodalovchi) va uning ortidagi ichki mohiyat (ifodalanuvchi) o‘rtasidagi dialektik aloqani qat’iy ilmiy qonuniyatlar negizida ochib berishga xizmat qiladi. Struktur-semiotik yondashuvda muallif tarjimai holi va shaxsiy kechinmalari vaqtincha chetga surilib, asosiy e’tibor bevosita she’riy matnning o‘ziga, undagi lingvistik birliklarning o‘zaro munosabati va yashirin ma’no qatlamlarini (”kodlarni”) aniqlashga qaratiladi.

She’riyatni semiotika asosda o‘rganish uchun matndagi badiiy elementlar uchta asosiy bosqich – **sintaktika** (belgilarning o‘zaro bog‘lanishi), **semantika** (belgining ma’nosi) va **pragmatika** (belgining o‘quvchiga ta’siri) doirasida tizimlashtiriladi. Masalan, mumtoz va tasavvufiy she’riyatdagi *”may” (ilohiy shavq)*, *”yor” (Alloh)*, *”soqiy” (murshid)* kabi an’anaviy obrazlar shunchaki so‘zlar emas, balki muayyan diniy-falsafiy tizimning madaniy kodlari (ramzlari) sifatida semantik tahlil etiladi. Tadqiqotchi she’rdagi fonetik ohang, qofiya, radif, metrik vazn hamda metaforalarni yaxlit bir struktura holida o‘rganib, matn tarkibidagi mikro va makro belgilar qanday qilib yagona estetik g‘oya va yangi semantik ma’no hosil qilayotganini ilmiy-nazariy jihatdan dalillaydi. Quyida misollar bilan tanishamiz:

“Ishqing qildi shaydo meni” she’rining semiotik xususiyatlari

Ishqing qildi shaydo meni,
Keling ko‘ring ishq ne qildi.
Gah esarman yellar kabi,
Gah to‘zarman yo‘llar kabi,
Gah oqarman sellar kabi,
Keling ko‘ring ishq ne qildi.

Mazkur she’r Yunus Emro tasavvufiy lirikasining g‘oyaviy-estetik mohiyatini mujassamlashtirgan namunalardan biri bo‘lib, undagi poetik birliklar yagona belgilar tizimi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Semiotik yondashuv nuqtai nazaridan matn mazmuni alohida so‘zlar orqali emas, balki ularning o‘zaro munosabati, takrorlanishi va ramziy yuklamasi vositasida shakllanadi. Shu bois she’rning ichki strukturasi tasavvuf tafakkuriga xos ko‘p qatlamli ma’no tizimini yuzaga chiqaradi. She’rning **semantik markazini “ishq” tushunchasi** tashkil etadi. Biroq bu leksema dunyoviy muhabbatni emas, balki inson ruhining mutlaq haqiqat sari intilishi, ya’ni ilohiy muhabbat konsepsiyasini ifodalaydi. Tasavvuf poetikasida ishq komillik sari olib boruvchi ma’naviy kuch bo‘lib, lirik qahramonning barcha ruhiy kechinmalari aynan shu belgi atrofida tizimlashadi. Demak, “ishq” she’rning asosiy semantik kodi sifatida butun poetik makonni birlashtiruvchi markaziy unsur vazifasini bajaradi.

Matnda muntazam takrorlanayotgan “**Keling ko‘ring ishq ne qildi**” misrasi kommunikativ jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu takror o‘quvchini tashqi kuzatuvchidan ruhiy tajribani mushohada qiluvchi faol subyektga aylantiradi. Natijada takroriy konstruksiya nafaqat ritmik uyg‘unlikni ta’minlaydi, balki

matnning pragmatik ta’sir kuchini ham oshiradi. Shu jihatdan u poetik matnning dominant belgilaridan biri hisoblanadi.

She’r tarkibidagi “yel”, “yo‘l” va “sel” obrazlari tasavvufiy tafakkurda shakllangan ramziy kodlar tizimiga mansubdir. “Yel” ruhning cheksiz erkinligi va ilohiy ilhomni anglatsa, “yo‘l” muridning suluk bosqichlari orqali ma’naviy kamolot sari harakatini bildiradi. “Sel” obrazi esa ilohiy ishqning inson qalbini to‘liq egallovchi qudratini ifodalovchi kuchli ramziy belgidir. Ushbu obrazlar birgalikda lirik qahramonning ruhiy transformatsiyasi bosqichlarini aks ettiradi.

Matnning sintaktik tashkil topishi ham semiotik nuqtai nazardan muhimdir. “Gah esarman… Gah to‘zarman… Gah oqarman…” tarzidagi parallel sintaktik qurilmalar ichki ritmni kuchaytirish bilan birga, ruhiy holatning dinamik rivojlanishini ham ifodalaydi. Mazkur parallelizm poetik belgilar o‘rtasidagi strukturaviy uyg‘unlikni ta’minlab, she’rning yaxlit kompozitsion modelini shakllantiradi.

Umuman olganda, she’rda qo‘llangan barcha ramziy birliklar yagona semiotik tizimni tashkil etadi. Ularning o‘zaro munosabati orqali insonning nafsdan poklanishi, ilohiy ishq vositasida ruhiy komillikka erishishi va Haq bilan ma’naviy yaqinlashuvi g‘oyasi badiiy jihatdan ifodalanadi.

“Bana seni gerek seni” she’rining semiotik xususiyatlari

Cennet cennet dedikleri,
Bir necha köşk ile huri.
İsteyene ver sen anı,
Bana seni gerek seni.

Ushbu she’r Yunus Emro ijodidagi tasavvuf falsafasining eng yuksak ifodalaridan biri bo‘lib, unda moddiy va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik ramziy obrazlar orqali talqin etiladi. Struktur-semiotik tahlil shuni ko‘rsatadiki, matnda barcha poetik belgilar markaziy konsept- ilohiy visol g‘oyasini ochishga xizmat qiladi. She’rning dastlabki misralarida uchraydigan “cennet” obrazi odatiy diniy tasavvurlardagi mukofot timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq lirik qahramon uchun ushbu ramz asosiy maqsad emas. Aksincha, u ilohiy haqiqat oldida ikkilamchi qadriyat darajasiga tushiriladi. Shu tariqa matnda “jannat” moddiy va hissiy ne’matlar tizimining belgisi sifatida talqin qilinadi.

She’rning semantik markazi esa “sen” olmoshida mujassam bo’lgan. Tasavvuf poetikasida ushbu birlik bevosita Alloh timsolini anglatadigan ramziy belgidir. Shu sababli “Sen” she’rning barcha semantik qatlamlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi markaziy kod vazifasini bajaradi. Natijada matnda “cennet” va “sen” tushunchalari qarama-qarshi semantik maydonlarni hosil qiladi: biri moddiy mukofotni, ikkinchisi esa mutlaq Haqiqat va ilohiy visolni ifodalaydi.

“Bir necha köşk ile huri” birikmasi tasavvufiy tafakkur nuqtai nazaridan o‘tkinchi dunyoviy istaklarning ramzi sifatida talqin qilinadi. Lirik qahramon ushbu ne’matlardan ongli ravishda voz kechib, «Bana seni gerek seni» degan xulosaga keladi. Mazkur misra poetik matnning g‘oyaviy kulminatsiyasi bo‘lib, barcha oldingi belgilarni yagona ma’no markaziga jamlaydi.

Pragmatik jihatdan ushbu jumla o‘quvchini moddiy manfaatlar ustuvor bo‘lgan qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi hamda inson kamoloti ilohiy muhabbat bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglatadi. Shu bois uning ta’sir kuchi faqat badiiy-estetik emas, balki falsafiy va axloqiy mazmun kasb etadi. O’rganishlarimiz natijasida she’rning butun semiotik tizimi ilohiy ishq konsepsiyasi asosida qurilganligi kuzatiladi. Undagi barcha ramzlar, qarama-qarshi ma’nolar va poetik belgilar o‘zaro uyg‘unlashib, tasavvufning bosh g‘oyasi - insonning Mutlaq Haqiqat sari ma’naviy yuksalishini badiiy jihatdan ifodalaydi.

Yunus Emro poeziyasi semiotik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, uning she’riyati alohida poetik obrazlar yig‘indisidan iborat emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan murakkab belgilar tizimi ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir ijodida ishq, yor, may, yo‘l, nur, ko‘ngil, nafs kabi tasavvufiy tushunchalar badiiy tasvir vositasi sifatidagina emas, balki ko‘p qatlamli semantik mazmunga ega bo‘lgan madaniy kodlar vazifasini bajaradi. Ushbu kodlar o‘zaro munosabatda bo‘lib, matnning ichki semantik makonini shakllantiradi hamda o‘quvchini zohiriy ma’nodan botiniy mohiyatni anglash sari yo‘naltiradi. Struktur-semiotik yondashuv shuni ko‘rsatadiki, Yunus Emro poetikasida fonetik takrorlar, sintaktik parallelizmlar, ramziy obrazlar va tasavvufiy timsollar yagona badiiy modelni hosil qilib, ilohiy ishq, ruhiy poklanish va komil inson g‘oyalarining estetik ifodasiga xizmat

qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Yunus Emro she’riyatini semiotik metod asosida tadqiq etish shoir poetikasining ichki qonuniyatlarini, poetik kodlar tizimini va ramzlarning funksional xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bunday yondashuv asar mazmunini faqat g‘oyaviy yoki diniy talqin qilish bilan cheklanmay, uning badiiy strukturasi, belgilar o‘rtasidagi munosabatlar hamda ma’no hosil qilish mexanizmlarini ham ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Natijada Yunus Emro ijodi turkiy tasavvuf adabiyotining yuksak namunasi sifatida nafaqat tarixiy-adabiy, balki zamonaviy semiotika, poetika va komparativ adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim nazariy ahamiyat kasb etishi isbotlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Köprülü, M. F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. 2. bs. – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1966. – 375 s.
2. Toprak, B. Yunus Emre Divanı. – İstanbul: Varlık Yayınları, 1933. – 247 s.
3. Gölpınarlı, A. Yunus Emre ve Tasavvuf. – İstanbul: İnkılâp Kitabevi, 1961. – 515 s.
4. Eyüboğlu, S. Yunus Emre. – İstanbul: Cem Yayınevi, 1971. – 184 s.
5. Kabaklı, A. Türk Edebiyatı. Cilt 1. – İstanbul: Türk Edebiyatı Vakfı Yayınları, 1994. – 608 s.
6. Haqqul, I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 1991. – 208 b.
7. Davron, X. Yunus Emre. Saylanma (tarjima va so‘zboshi). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2021. – 176 b.
8. Saussure, F. de. Course in General Linguistics / Translated by Wade Baskin. – New York: McGraw-Hill Book Company, 1966. – 240 p.
9. Peirce, C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. Vol. 2: Elements of Logic. – Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 1932. – 470 p.
10. Lotman, Yu. M. The Structure of the Artistic Text. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1977. – 300 p.